2-misol: $y = x^2 - 3x + 2$ parabolani (2,3) vektorga nisbattan parallel ko'chirishda hosil bo'lgan parabola uchi koordinatalari yig'indisini aniqlang.

3-misol: Ushbu $y = -3x^2 + 8x - 8$ funksiyaning grafigi Dekart koordinatalar sistemasining qaysi choraklarda joylashgan?

Xulosa. Funksiya grafigini hosil qilishda uni to'la o'rganish talab etiladi. Ya'ni fuksiya aniqlanish sohasi, qimatlar to'plami, o'sish va kamayish oraliqlari, kritik nuqtalari, ekstremum qiymatlari, uzilish nuqtalari, koordinata o'qlarini kesib o'tish nuqtalari, botiq va qavariqligi, hamda asimptotalarini topish talab etiladi. Topilgan ma'lumotlarga ko'ra uing grafigi hosil qilinadi. Biroq ba'zi hollarda funksiya turidan kelib chiqib unig grafigini o'gzaki topiladigan ma'lumotlarga ko'ra sodda tarzda hosil qilish mumkinligi maqolada misollar bilan bayon qilindi. Olingan natijalar va bayon qilingan usullar funksiya grafiklarini hosil qilishda ba'zi muammoli hisob kitoblarni chetlab o'tish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.A.Alimov, O.R.Xolmuhamedov, M.F.Mirzaahmedov "Algebra" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. T. "O'qituvchi" - 2010y.
2. Abdullayev J.,Muminov Z. "Matematika" Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun uslubiy qo'llanma.//Toshkent. "Turon-Iqbol" 2011y.
3. Abdullayev, A., Hidoyatova, M. Exact method to solve finite difference equations of linear heat transfer problems (2021) AIP Conference Proceedings, 2402, № 070021. doi: 10.1063/5.0071430
4. Abdullaev, A., Hidoyatova, M. Innovative distance learning technologies. Journal of Critical Reviews, 2020, 7(11), pp. 337–339. doi: 10.31838/jcr.07.11.57

HOSILANING FIZIKA VA KIMYODAGI TADBIQLARI

Xidoyatova M.ass., Ergashev S Gidrotexnika qurilishi fakulteti 102 guruh.
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya:

Maqolada matematikadan amaliy darslarning samadorligini oshirishda, talabaning fanga nisbatan qiziqishini ortirish maqsadida, hosilaning fizika va kimyodagi tadbiqlari aniq masalalar yordamida yoritilgan.

Kalit so'zlar: hosila, tezlik, tezlanish, masofa, hajm.

Kirish. Hosilani tadbiqlari mavzusini yoritishda aksariyat o'qituvchilar, hosilaning taqribiy hisoblashga, funksiyani to'la tekshirishga, limitlarni hisoblashga tadbiqlari bilan cheklanib qoladilar. Aslida hosilaning tadbiqlari keng ko'lamli. Xususan bu maqolada hosilaning fizika va kimyodagi tadbiqlari masalar yordamida mukammal yoritilgan. Endi hosila ta'rifini keltirib birinch va ikkinchi tartibli hosilalarning fizik ma'nosi bilan tanishib chiqamiz.

Ta'rif: Berilgan $y = f(x)$ funksiyaning Δf orttirmasining Δx argument orttirmasiga nisbati $\Delta x \to 0$ bo'lganda chekli limitga ega bo'lsa, bu limit qiymati funksiyaning x_0 nuqtadagi ***hosilasi*** deb ataladi.

Berilgan $y = f(x)$ funksiyaning x_0 nuqtadagi hosilasi $f'(x_0)$ yoki $y'(x_0)$ kabi belgilanadi va, ta'rifga asosan,

$f'(x) = \lim\limits_{\Delta x \to 0} \frac{\Delta f}{\Delta x} = \lim\limits_{\Delta x \to 0} \frac{f(x_0+\Delta x)-f(x_0)}{\Delta x}$ tenglik orqali aniqlanadi.

Harakat tenglamasi $S=S(t)$ funksiya bilan ifodalanadigan notekis harakatda t_0 vaqtdagi oniy tezlik uchun $v(t_0) = \lim\limits_{\Delta t \to 0} \frac{\Delta S}{\Delta t} = S'(t_0)$ formulani hosil qilamiz. Demak, $y=f(x)$ funksiyaning hosilasi uning o'zgarish tezligini ifodalaydi va bu ***hosilani mexanik ma'nosi*** deyiladi. Nyuton hosila tushunchasiga mana shu yo'nalishdagi tadqiqotlari orqali kelgan va uni "flyuktsiya" deb atagan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu yerda "tezlik" tushunchasi faqat harakat tezligini ifodalamasdan, u keng ma'noda tushuniladi. Masalan, ximiyaviy reaksiya tezligi, texnologik jarayon tezligi, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish tezligi va hokazo.

Ikkinchi tartibli hosilaning mexanik ma'nosi**:** *M* modiy nuqta $S = f(t)$ qonuniyat bo'yicha to'g'ri chiziqli harakatlanayotgan bo'lsin. Bizga ma'lumki, S_t' hosila nuqtaning ma'lum paytdagi tezligiga teng: $S_t' = V$.

Yo'ldan vaqt bo'yicha olingan ikkinchi tartibli hosila nuqtaning tezlanishiga tengligini ko'rsatamiz, ya'ni $S_t' = a$

Biror *t* vaqt mobaynida nuqtaning tezligi *V*, $t + \Delta t$ vaqtda esa $V + \Delta V$ bo'lsin, ya'ni Δt vaqt oralig'ida tezlik ΔV katalikka o'zgarsin. $\frac{\Delta V}{\Delta t}$ munosabat nuqtaning Δt vaqt mobaynidagi o'rtacha tezlanishini ifodalaydi. Bu munosabatning $\Delta t \to 0$ dagi limiti *M* nuqtaning *t* vaqtdagi tezlanishi deyiladi va a bilan belgilanadi: $a\colon \lim\limits_{\Delta t \to 0} \frac{\Delta V}{\Delta t} = a$, ya'ni $V' = a$ lekin $V = S_t'$ bundan $a = (S_t')'$, yani $a = S_t''$.

Misol. Moddiy nuqta $S(t) = \frac{t^3}{3}$ qonuniyat bo‘yicha harakatlanmoqda. *t=5* vaqt mobaynidagi tezlanishini toping. Yechish: $a(t) = S'' = \left(\frac{t^3}{3}\right)''$=2t $a(5) = 2 \cdot 5 = 10$

I. 1-2 masalada fizikaga doir masalalar yoritilgan. Birinchi tartibli hosila tezlikni, ikkinchisi tartiblisi tezlanishni bildirishini ko‘pchilik biladi.

1-masala. Tormoz bosilishidan oldin mashina soatiga 40 mil tezlikda harakatlanayotgan yedi. Mashina sekundiga 10 futga (1 fut 0,3048 metr) o‘zgarmas tarzda sekinlashi ma'lum bo‘lsa, u to‘la to‘xtaguncha qancha masofa bosib o‘tadi?

Yechish: Dastlab t vaqtagi mashinaning pozitsiyasini $x(t)$ bilan belgilasak , u holda $v(t) = x'(t)$ (tezlik), $a(t) = x''(t)$ (tezlanish) bo‘ladi. Mashina shartiga ko‘ra mashina sekundiga 10 futga seknlashadi, ya'ni $a(t) = \frac{-10ft}{s^2}$ o‘zgarmasdir. Bu degani $x''^{(t)} = \frac{-10ft}{s^2}$. Bu tenglikni integrallasak

$$v(t) = x'^{(t)} = \int x''^{(t)} dt = -10t + c_1$$

bu yerda *t* sekundlarda o’lchanadi. Tormoz bosilgan paytda (*t=0*) da

$v(0) = 40\ mil/soat\ (1\ \text{мил}\ 0{,}44704\ {}^{\text{м}}/_{\text{с}})$ bo’lgani sababli $v(t) = 40 - 10t$ bo’ladi. Endi mashina tezlik 0 ga teng bo’lganda to’xtashini hisobga olsak $v(t) = 0$ dan $t = \frac{40mil/soat}{10ft/sek^2}$ kelib chiqadi. Birliklarni birxillashtirsak, ya’ni

$$t = \frac{40mil/soat}{10ft/sek^2} = \frac{40\cdot\frac{5280ft}{3600sek}}{10\cdot ft/sek^2} = 4\frac{528}{360}sek = 5{,}867sek.$$

Demak, mashina tormoz bosilganidan 5,867 sekund o’tib to’xtagan. Keying qadam shu vaqt ichida mashinaning qancha km masofa bosib o’tganini aniqlash.

Endi $v(t) = x'(t) = -10t + 58{,}57$ ni hisobga olib mashina pozitsiyasini hisoblaymiz: $x(t) = \int x'(t)dt = -5t^2 + 58{,}67t + c_2$, bu yerda boshlang’ich pozitsiyani bildiradi. Demak, mashina bosib o’tgan masofa

$s = x(t) - x(0) = -5t^2 + 58{,}67t$ formula orqali topiladi. Aniqrog’i mashina $s = -5(5{,}867)^2 + 58{,}67 \cdot 5{,}867 = 172{,}108\ fut$ masofa yurgan.

2-masala.$d(t) = 2 - 3t^2$ ifodaga mos ravishda harakatlanayotgan mashinaning 5-sekundagi tezligini toping. Bu yerda masofa metrlarda, vaqt sekundlarda o‘lchanadi.

Yechish: Bunda $v(t) = d'(t)$ ekanligini bilgan holda $t = 5$ da $v(t)$ qiymatini topish kifoya, ya'ni: $v(t) = d'^{(t)} = -6t \rightarrow v(5) = -6 \cdot 5 = -30 metr/sek.$

II. 3-masala kimyoga doir masala yoritilga.

3-masala. Konussimon voronkadan suv $0{,}03\,sm^2/sek$ tezlikda tushmoqda. Voronkaning bo‘yi *2 sm*, yuqori qismining radiusi *1 sm* ga teng bo‘lsa, suvning voronkadagi balandligi *0,5 sm* bo‘lganda uning o‘zgarish o‘zgarish tezligi qanday bo‘ladi? (1-rasmda hamma elementlar belgilangan)

1-rasm



Echish: *h* bilan voronkadagi suvning balandligini, *r* bilan voronka ustki qismi radiusi va *V* bilan voronka hajmini belgilab olamiz. Topishimiz kerak bo‘lgan kattalik $h = 0{,}5$ bo‘lgan paytda $\frac{dh}{dt}$ ning qiymatidir. Masala shartidan ma'lumki $\frac{dV}{dt} = -0{,}03\,sm^2/sek.$ boshqa tomondan esa konus hajmi $V = \frac{1}{3}\pi r^2 h.$ Rasmdan ko’rish mumkinki (o’xshash uchburchaklar xossasiga ko’ra) $\frac{r}{h} = \frac{1}{2}$ yoki $r = \frac{h}{2}$. Hajm formulasiga olib borib qo’ysak: $V = \frac{1}{3}\pi\left(\frac{h}{2}\right)^2 \cdot h = \frac{\pi h^3}{12}$ ni olamiz. Suv balandligi vaqt o’tishi bilan o’zgarib borganligi uchun $h = h(t)$ deb yozib olsak bo’ladi. Endi hajmdan *t* bo’yicha hosila olsak $\frac{dV}{dt} = \frac{\pi}{4}h^2\frac{dh}{dt}$ teng bo’ladi. Bu yerdan esa $-0{,}03 = \frac{\pi}{4}h^2\frac{dh}{dt}$ ga ega bo’lamiz yoki $\frac{dh}{dt} = -\frac{3}{25\pi h^2}$. Suv balandligi $h = 0{,}5$ bo’lganda $\frac{dh}{dt} = -\frac{3}{25\pi(0{,}5)^2} \approx -0{,}153\,sm/sek$ kelib chiqadi.

Xulosa. “Hosila va uning tadbiqlari” bo’limni o’zlashtirish natijasida o’quvchilar:

1. funktsiya orttirmasi, hosila tushunchasiga olib keluvchi masalalar, hosila tushunchasi, uni hisoblash qoidalari, elementar funktsiyalarning hosilalari, hosilalar jadvali, hosilaning geometrik va fizik ma’nolari hosilaning tadbiqlarini bilishi;

2. funktsiyaning hosilasiga oid amaliy masalalarni yechish ko’nikma va malakalariga ega bo’lishadi.

Bu mazmunni o’qitishda kamchiliklardan biri shundaki, mavjud o’quv adabiyotlarida alohida kasbga yo’naltirilganlik yo’qligidir.

Har bir matematika o’qituvchisi “Hosila va uning tadbiqlari” bo’lim bo’yicha mazmunnidan kelib chiqqan holda (umumiylikni yo’qotmagan holda), bu mavzuni ochib beruvchi masalalarni aynan fakultet va yo’nalishlardan kelib chiqqan holda tanlanishi maqsadga muvofiq bo’lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.SH.Ruzmetov, G’.X.Jumaboyev “Matematika” darslik T.2020y.
2. https://hozir.org. hosila ta’rifi, hosilaning mexanik ma’nolari

IQTISODIY MASALALARNI MATRITSALAR YORDAMIDA YECHIMINI TOPISH

M.Xidoyatova., Samatova G. YRB 101 guruh
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya:

Maqolada matematikadan amaliy darslarning samadorligini oshirishda, fanlararo integratsiya o'rni yoritilib, xususan matritsalar yordamida iqtisodiy masalalarni yechilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: matritsa, satr, element, sarf harajat, foyda.

Kirish: Respublikamiz prezidenti tomonidan "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" **ПҚ-4708-сон 07.05.2020**., "Matematika ta'lim va fanlarini yanada rivojlantirish davlat tomonidan qo'llab quvvatlash, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika to'g'risida" **ПҚ-438-сон 09.07.2019** qabul qilingan qarorlar, matematika fanidan dars beruvchi o'qituvchilarga ta'lim berishga katta mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi. Demak oliy ta'lmning asosiy maqsadi raqobatbardosh, malakali mutaxassilarni tayorlashdir. Buning uchun fanlaro integrasiyaga katta ahamiyat berishni, ya'ni matematikani har bir sohaga tadbiqini takomallashtirish taqozo etadi. Fanlararo aloqadorlikning izchillik shakli o'quvchilarni matematik ko'nikma va malakalarini shaklantirishda muxim ahamiyatga ega.

Yuqorida keltirilgan fiklarni isboti sifatida matematik va atrofdagi dunyoning uyg'unligi haqida buyuk olim faylasuf **B. Rassel** fikrlarini keltirish mumkin: ***Matematika nafaqat haqiqatga, balki eng yuksak go'zallikka ham ega - bu nafaqat mukammal san'at namunalariga xos bo'lgan mukammal va qat'iy, ulug'vor sof va chinakam mukammallikka intiladigan go'zallikdir.***

Determinant va matritsalar nazariyasi matematika, iqtisod, fizika, mexanika, elektrotexnika, radiotexnika, qurilishda,kundalik hayotimizda va h.k.larda keng qo'llaniladi. Matritsa operatsiyalari juda og'ir emas va ortiqcha mashaqqatli ishni talab qilmaydi; aksincha, matritsa algebrasi ko'p hollarda aynan o'zining qisqaligi, soddaligi va ravshanligi uchun baholanadi. Matritsa algebrasi yordamida katta va kichik ko'pgina masalalarni o'lchamidan qat'i nazar, matematik shaklda ifodalash mumkin. Endi matritsalarni tadbiqiga doir misollar keltiramiz:

Misol 1. Korxona 3 turdagi mahsulot (P_1, P_2, P_3) ishlab chiqarishda 2 turdagi (S_1, S_2) homashyodan foydalanadi. Hom ashyoning sarflash miqdori $A = \begin{pmatrix} 7 & 5 \\ 4 & 3 \\ 8 & 1 \end{pmatrix}$ va tan narhi $B = \begin{pmatrix} 50 \\ 45 \end{pmatrix}$ (pul birlikda) teng bo'lsa, $C = (50 \quad 60 \quad 150)$ buyurtmani bajarishga sarflanadigan hom ashyo miqdori va buyurtmaning umumiy qiymatini aniqlang.

Yechish: Hom ashyo miqdori $S = C \times A$ teng bo'ladi. Demak

$$S = (50 \quad 60 \quad 150) \times \begin{pmatrix} 7 & 5 \\ 4 & 3 \\ 8 & 1 \end{pmatrix} = (1790 \quad 580)$$

Buyurtmaning qiymati $Q = S \times B = (CA)B = (115600)$ teng bo'ladi.

Misol 2. Tadbirkor kuniga 10 juft kattalar oyoq kiyimi, 15 juft bolalar oyoq kiyimi, 20 juft bolalar oyoq kiyimi ishlab chiqarishni rejalashtirgan.

Uni A=(10 15 20) satr-matritsa ko'rinishida qisqacha yozib olish mumkin. Bu mahsulotlarning narxi (pul birlikda) B$\begin{pmatrix} 80 \\ 50 \\ 100 \end{pmatrix}$ ustun matritsadan iborat bo'lsa tadbirkorning kunlik daromadini hisoblang.

Yechish: Kunlik daromadni xisoblash uchun A satr-matritsani B ustun matritsaga ko'paytiramiz.

A*B=$(10\ \ 15\ \ 20) \times \begin{pmatrix} 80 \\ 50 \\ 100 \end{pmatrix}$=$(10 \cdot 80 + 15 \cdot 50 + 20 \cdot 100)$=$(800 + 750 + 2000)$= (3550)

Demak daromad 3550 000 so'mni tashkil qilar ekan.

<u>Misol 3</u>.To'rtta yoqilg'i quyish shaxobchasi quyida A martitsa ustida ko'rsatilgan miqdorda har bir yoqilg'i quyish shaxobchasi harid qilingan yoqilg'i bo'lsin.

A= $\begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 & 4 \\ 1 & 0 & 2 & 3 \\ 4 & 2 & 0 & 5 \end{pmatrix}$

Birinchi satrda to'rtta yoqilg'i quyish shaxobchasidan olingan benzin miqdori. Ikkinchi satrda to'rtta yoqilg'i quyish shaxobchasidan olingan salyarka miqdori, uchinchi satrda to'rtta yoqilg'i quyish shaxobchasidan olingan gaz miqdori. T= $(4\ \ 3\ \ 2)$ satrlar bu yoqilg'ilarning narxi (so'm birlikda). E to'rtta birdan iborat ustun matritsa bo'lsa $T \times A, \quad TAE$

Matritsalar ko'paytmasini topaylik va ma'nosini tushuntiraylik.

Yechish: T matritsani A matritsaga ko'paytirsak

$$T \times A = (4\ \ 3\ \ 2)\begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 & 4 \\ 1 & 0 & 2 & 3 \\ 4 & 2 & 0 & 5 \end{pmatrix} = (4 \cdot 1 + 3 \cdot 1 + 2 \cdot 4 \quad 4 \cdot 2 + 3 \cdot 0 + 2 \cdot 2 \quad 4 \cdot 1 + +3 \cdot 2 + 2 \cdot 0 \quad 4 \cdot 4 + 3 \cdot 3 + 2 \cdot 5)$$

=$(15\ \ 12\ \ 10\ \ 35)$

Satr matritsaga ega bo'lamiz. $M_1 = 15$ birinchi yoqilg'i quyish shaxobchasining olgan neft maxsuloti uchun to'langan pulning miqdorini bildiradi. Xuddi shunday $M_2 = 12$ ikkinchi shaxobchaning olgan neft mahsuloti uchun to'langan pulni bildiradi. $M_3 = 35$ to'rtinchi shaxobchaning olgan neft mahsuloti uchun to'langan pulini, bildiradi. A ni E ga ko'paytiramiz.

A*E=$\begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 & 4 \\ 1 & 0 & 2 & 3 \\ 4 & 2 & 0 & 5 \end{pmatrix}$*$\begin{pmatrix} 1 \\ 1 \\ 1 \\ 1 \end{pmatrix}$=$\begin{pmatrix} 8 \\ 6 \\ 11 \end{pmatrix}$

Natija ustun-matritsadan iborat bo'lib, uning ma'nosi to'rtta xaridorning 8 ming kg benzin, 6 ming kg salyarkava 11 ming m^3 gaz olganini bildiradi T*A*E ko'paytmasini hisoblaymiz

$T \cdot (A \cdot E)$=(4 3 2) $\cdot \begin{pmatrix} 8 \\ 6 \\ 11 \end{pmatrix}$=$(32 + 18 + 22)$ =72

$$(T \cdot A) \cdot E = (15\ 12\ 10\ 35) \cdot \begin{pmatrix} 1 \\ 1 \\ 1 \\ 1 \end{pmatrix} = (15 + 12 + 10 + 35) = 72$$

Ikkala holda ham bir xil natijaga ega bo’ldik. Bu natija to’rtta shaxobchaning hamma mahsuloti uchun to’lagan pul miqdorini bildiradi.

Xulosa. Shunga o’xshash ko’pgina masalalarda oily matematika elementlaridan foydalanamiz. Shunday ekan matematikani o’rganishga e’tibor berishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F. B. Badalov ,, Optimallash nazariyasi va metodik programmalashtirish” Toshkent. ,,O’qituvchi” 1989. B. 62-65.
2. X. P. Latipov, Sh. I. Tojiyev, R. Rustamov “Analitik geometriya va chiziqli algebra” Toshkent ,, O’zbekiston” 1995. B. 60-63.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.2020 йил
4. Toshpo’latov B.T., Dusumbyetov A.D., Qulmatov A.Q. Algyebra va sonlar nazariyasi. Ma’ruzalar matni. T., 2001 1-5- qismlar.

IQTISODIY MASALALARNI YECHISHDA CHIZIQLI ALGEBRAIK TENGLAMALAR SISTEMASINING TATBIQLARI

Talabalar: N.Esonov, N.Sarsenboyev
Ilmiy rahbar: PhD-X.M.Komilova
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya:

Bu maqolada Iqtisodiy masalalarni yechishda chiziqli algebraik tenglamalar sistemasining tatbiqlarini ko’rib o’tamiz.

Kalit so'zlar: Tenglamalar sistemasi, Kramer formulasi, Gauss usulifunksiya, yechim

Kirish: Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda tabiiy fanlarning roli kattadir. Bu esa, bo’lg’usi mutaxassislardan texnika, meditsina, iqtisodiyot, qishloq xo’jaligi va boshqa sohalarga oid turli jarayonlarning matematik modellarini tuzish va ular yordamida nazariy hamda amaliy masalalarni yecha bilishlikni taqazo etadi.

Muammoning qo`yilishi.

Matematika - dunyodagi eng eski va eng elementar ilmlardan biridir. Matematika turli sohalarda keng qo'llaniladi, iqtisodiyot va qishloq xo`jaligi sohasida alohida ahamiyatga ega. Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi yordamida iqtisodiyot tarmoqlariga tegishli masalalarning yechimlarini toppish mumkin. Chiziqli tenglamalar sistemasining amaliy masalalarga tatbiqini quyidagi masalalarda ko‘rib chiqamiz.

1-masala. Zavodda 3 xil turdagi temir-buyum mahsulotlari ishlab chiqariladi. Mahsulotlar uchun 3 turdagi S_1, S_2 va S_3 xom-ashyo ishlatiladi. Bitta mahsulot uchun har bir xom-ashyodan ishlatish me’yori va bir oylik xom-ashyo ishlatish hajmi 1-jadvalda berilgan. Zavodning har bir mahsulot bo‘yicha bir oylik ishlab chiqarish hajmini toping.

Yechish. Masalani chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi yordamida yechamiz.

Faraz qilaylik, zavod bir oyda x dona darvoza, y dona deraza panjarasi, z dona zinapoya to‘siqlari ishlab chiqarsin. U holda, har bir turdagi mahsulot uchun xom-ashyo sarflanishiga mos holda, quyidagi sistemani hosil qilamiz:

$$\begin{cases} 2x + 3z = 69, \\ x + 2y + z = 60, \\ 5x + 4z = 120. \end{cases}$$

Bu sistemani turli usullar bilan yechish mumkin. Biz Kramer usulidan foydalanamiz. Buning uchun asosiy determinantni tuzamiz va hisoblaymiz:

$$\Delta = \begin{vmatrix} 2 & 0 & 3 \\ 1 & 2 & 1 \\ 5 & 0 & 4 \end{vmatrix} = -14.$$

Asosiy determinant noldan farqli, demak, sistema birgalikda va yagona yechimga ega. Yordamchi determinantlarni tuzamiz va hisoblaymiz:

$$\Delta x = \begin{vmatrix} 69 & 0 & 3 \\ 60 & 2 & 1 \\ 120 & 0 & 4 \end{vmatrix} = -168,$$

$$\Delta y = -231, \quad \Delta z = -210.$$

Kramer formulasiga asosan, masalaning matematik nuqtai- nazardan yechimini topamiz:

$$x = \frac{-168}{-14} = 12, \quad y = \frac{-231}{-14} = 16.5, \quad z = \frac{-210}{-14} = 15.$$

1-jadval

Xom-ashyo turlari	Bitta mahsulot ishlab chiqarish uchun xom-ashyo islatilishi me’yori (shartli birlikda)			Bir oylik xom-ashyo islatilishi (shartli birlikda)
	darvoza	deraza panjarasi	zinapoya to‘siqlari	
S_1	2	0	3	69
S_2	1	2	1	60
S_3	5	0	4	120

Masala yechimi butun bo‘lishini hisobga olsak, sistemaning noma’lumlari qiymatidan quyidagi xulosaga kelamiz, ya’ni zavod bir oyda 12 ta darvoza, 16 ta deraza va 15 ta zinapoya to‘siqlarini ishlab chiqaradi.

2-masala. Ma’lum bir sondagi o‘ramli materialdan fabrikada A- ko‘rinishda 360 ta, B-ko‘rinishdagi – 300 ta va C-ko‘rinishdagi 675 ta mahsulot tikiladi. 3- xil usuldagi bichishdan foydalanish mumkin. Har bir material o‘ramidan bichish usullari bo‘yicha mahsulotlar tayyorlash miqdori 2-jadvalda berilgan. Reja bajarilishi shartini matematik shaklda yozing.

Yechish. x, y va z bilan mos ravichda birinchi, ikkinchi va uchinchi bichish usullari bo‘yicha ishlatilgan material o‘ramlari bo‘lsin. U holda, 1-bichish usulida x ta o‘ramda $3x$ ta, 2-bichish usulida – $2y$ ta, 3-bichish usulida – z ta A turdagi mahsulotlar rejasini bajarish uchun quyidagi tenglama o‘rinli bo‘lishi kerak: $3x+2y+z=360.$ Xuddi shu yo‘l bilan $x+6y+2z=300,$ $4x+y+5z=675$ tenglamalarni hosil qilamiz. Ularni ushbu sistema ko‘rinishida ifodalaymiz:

$$\begin{cases}3x+2y+z=360,\\ x+6y+2z=300,\\ 4x+y+5z=675.\end{cases}$$

2-jadval

Mahsulot turlari	Bichish shakllari		
	1	2	3
A	3	2	1
B	1	6	2
C	4	1	5

Sistemani Gauss usulida yechamiz:

$$\left(\begin{array}{ccc|c}3&2&1&360\\1&6&2&300\\4&1&5&675\end{array}\right)\sim\left(\begin{array}{ccc|c}1&6&2&300\\3&2&1&360\\4&1&5&675\end{array}\right)\sim$$

$$\sim\left(\begin{array}{ccc|c}1&6&2&300\\0&-16&-5&-550\\0&-7&2&15\end{array}\right)\sim\left(\begin{array}{ccc|c}1&6&2&300\\0&16&5&550\\0&-14&4&30\end{array}\right)\sim$$

$$\sim\left(\begin{array}{ccc|c}1&6&2&300\\0&16&5&550\\0&2&9&570\end{array}\right)\sim\left(\begin{array}{ccc|c}1&6&2&300\\0&2&9&570\\0&16&5&540\end{array}\right)\sim$$

$$\sim\left(\begin{array}{ccc|c}1&6&2&300\\0&2&9&570\\0&0&-67&-4020\end{array}\right)\sim\begin{cases}x+6y+2z=300,\\ 2y+9z=570,\\ -67z=-4020.\end{cases}$$

Bu tenglamalar sistemasi yuqorida masala shartiga binoan tuzilgan tenglamalar sistemasiga teng kuchlidir. Hosil bo‘lgan sistemadan $x=90,$ $y=15,$ $z=60$ qiymatlarni aniqlaymiz.

Yuqorida ko‘rilgan masalalardan ma’lumki, chiziqli algebraik tenglamalar sistemasining iqtisodiy masalalarni yechishda o‘rni kattadir.

Xulosa

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, нафақат иқтисодиётда балки қишлоқ хўжалиги ва бошқа соҳаларда хам математиканинг ўрни ва аҳамияти беқиёс дея оламиз. Bugungi kunda ko’rib turganimizdek matematik amallar, mantiqlar va hisoblashlarsiz biror bir natijaga erishib bo’lmaydi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Гатаулин А.М., Харинтова Л.А., Гаврилов Г.В. Экономико – математические методы в планировании сельскохозяйственного производства. –М.:Колос,1986;
2. Ё.У.Соатов, Олий математика. Тошкент,1993.
3. B.A.Xudayarov, Matematika. Toshkent-2018.
4. X.Komilova, Qishloq va suv xo′jaligi masalalarini modellashtirish(o’quv qo’llanma),2021.

MAPLE 18 DASTURI YORDAMIDA ANALITIK MEXANIKA FANINING MASALARINI YECHISH VA KOORDINATA O’QIDA GRAFIGINI CHIZISH

Masaliyeva Maftuna Ergash qizi
Mexanika va matematik modellashtirish bakalavr yo’nalishi 2-kurs talabasi
“TIQXMMI” Milliy tadqiqotlar universiteti,

Annotatsiya. Mazkur maqolada Dalamber prinsipi yordamida mexanik sistemaning harakatini tahlil qilanadi.

Kalit so’zlar: Burchak tezligi, burchak tezlanishi, moment, koordinata o’qlaridagi proyeksiyalar, yuk og’irligi, sterjen og’irligi, burchak, solve, evalf, plot.

Masala sharti: Tenglamalar sistemasini EVM Maple 18 dasturi yordamida yechish uchun quyidagi parametrlarni qabul qilinadi:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhamedov T., Tuproq eroziyasi dehqonchilik uchun ofat, T., 1973;

2. N Bezak, M Mikos, P Borrelli, et all., Soil erosion modeling: A bibliometric analyses, https://doi.org/10.1016/j.envres.2021.111087.

3. Eldiiar Duulatov , Xi Chen , Amobichukwu C. Amanambu, Friday U. Ochege, Rustam Orozbaev , Gulnura Issanova and Gulkaiyr Omurakunova, Projected Rainfall Erosivity Over Central Asia Based on CMIP5 Climate Models,2019, doi:10.3390/w11050897.

4. Oldeman, L. The global extent of soil degradation1. In Szabolcs I, Eds1 Soil Resilience and Sustainable Land Use1; Greenland, D.J., Ed.; CAB International: Wallingford, UK, 1994; pp. 99–1181.

5. Wischmeier, W.H.; Smith, D.D. Predicting Rainfall Erosion Losses-a Guide to Conservation Planning; Publisher: Washington, USA, 1978.

6. SH Khusen,Gafforov,B Amning, et all.,The Assessment of Climate Change on Rainfall-Runoff Erosivity in the Chirchik–Akhangaran Basin, Uzbekistan, Sustainability 2020, 12, 3369; doi:10.3390/su12083369.

7. E. Bühlmann, B. Wolfgramm, D. Maselli, H. Hurni, S.R. Sanginov, and H.P. Liniger, Geographic information system–based decision support for soil conservation planning in Tajikistan,2010, doi:10.2489/jswc.65.3.151.

8. Y Mukanov,Y Chen, S Baisholanov,et all., Estimation of annual average soil loss using the Revised Universal Soil Loss Equation (RUSLE) integrated in a Geographical InformationSystem (GIS) of the Esil River basin (ERB), Kazakhstan,2019, https://doi.org/10.1007/s11600-019-00288-0.

MATEMATIK MODELLASHTIRISH YORDAMIDA FIZIK JARAYONLARGA OID AMALIY MASALALARNI YECHISH

Rasulov Sanjar Jamshid o'g'li
Mexanika va matematik modellashtirish bakalavr yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Oliy matematika kafedrasi prof. fiz.-mat. f. doktori Ergashev T.G.
"TIQXMMI" Milliy tadqiqotlar universiteti

Annotatsiya:

Mazkur maqolada bir necha fizik masalalarning matematik modellari yaratiladi va modellarni yechish usullari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Nyuton qonunlari; jismning sovish tezligi; solishtirma issiqlik sig'imi; jismning harakat tezligi; idishlarni bo'shatish masalasi.

1-masalaning qo'yilishi. Nyuton qonuniga asosan, jismning havoda sovish tezligi jism va havo haroratlari ayirmasiga proporsional ($k=-\frac{1}{9}\ln 2$). Agar havo harorati 20° va jism harorati dastlab 100° bo`lsa, qancha vaqtdan keyin u 30° gacha soviydi?

Yechilishi. Jism haroratini T va vaqtni t bilan belgilaymiz. Masala shartiga ko`ra,

$$\frac{dT}{dt}=k(t-20),\ \ T(0)=100.$$

Bu Koshi masalasining yechimini $T(t)=20+80\cdot 2^{-t/9}$ ko`rinishda topamiz.

Endi jism qancha vaqtdan keyin 30° gacha sovishini aniqlaymiz:

$$30=20+80\cdot 2^{-t/9}.$$

Bundan $t=27$ minut ekanligi kelib chiqadi. Demak, jism 27 minutda 30° gacha soviydi.

2-masalaning qo'yilishi. Harorati 20° bo`lgan 1 kg suvi bor idishga 0,5 kg massali alyuminiy predmet tushirildi. Bu alyuminiyning solishtirma issiqlik sig'imi 0,2 va harorati $75^\circ$. Bir minutdan so`ng suv 2° ga isidi. Qachon suv va predmet haroratlarining farqi 1° bo`ladi? Idishni qizdirishga sarflanadigan issiqlik sarfi va boshqalarni hisobga olmang.

Yechilishi. Bundan oldingi masaladagi kabi,

$$\frac{dT_n}{dt}=k_n(T_n-T_c),\ \frac{dT_c}{dt}=k_c(T_c-T_n),$$

bu yerda T_n va T_c – predmet va suvning haroratlari, k_n va k_c – o`zgarmas koeffitsientlar. Birinchi munosabatdan ikkinchisini hadma-had ayirib va $R=T_n-T_c$ belgilash kiritib, yozamiz:

$$\frac{dR}{dt}=kR,\ k=k_n+k_c.$$

Bundan $R=Ce^{kt}$ umumiy yechimni topamiz. Masala shartiga ko`ra, vaqtning boshlang'ich $t=0$ momentida $R=55^\circ$ bo`lganligi uchun $C=55$ bo`ladi. Shuning uchun $R=55e^{kt}$. k koeffitsientni topish uchun issiqlik balansi tenglamasidan foydalanamiz:

$$Q=cm(T_к-T_n),$$

bu yerda $c-$jismning solishtirma issiqlik sig'imi, $m-$ uning massasi. Bu formulada $Q_1=2C_{H_2O}$ va $Q_2=0,2\cdot 0,5(75-T)C_{H_2O}$ haroratlarning farqi $T_к-T_n$ bilan belgilan-gan. Bu yerda Q_1-suvdagi issiqlik miqdori, Q_2- predmet T temperaturagacha soviganda ajralib chiqqan issiqlik miqdori. Shartga ko`ra, $Q_1=Q_2$ bo`lganligi uchun $T=55^\circ$. Demak, bir minutdan keyin $R=55^\circ-22^\circ=33^\circ$ bo`ladi. U holda $33=55e^k$, bundan $k=\ln 0,6$. Shuning uchun suv va jism temperaturalarining bir-biriga yaqin kelish qonuni $R=55\cdot(0,6)^t$ ko`rinishda bo`ladi. $55\cdot(0,6)^t=1$ tenglikdan

$$t=\frac{\ln 55}{\ln 5-\ln 3}\approx 8\ \text{minut},$$

ya`ni 8 minut o`tgandan keyin jismning harorati suvning haroratidan 1° ga yuqori bo`ladi.

3-masalaning qo'yilishi. Jismning harakat tezligi u bosib o`tgan yo`lga proporsional (proporsionallik koeffitsienti $k=2$). Agar jism 10 sekundda 100 metr yo`l bosib o`tsa, uning yo`l formulasini toping.

Yechilishi. Jism tezligini $v(t)$, jism bosib o`tgan yo`lni esa $s(t)$ bilan belgilaymiz. Masala shartiga ko`ra, $v(t) = 2s(t)$. $v(t) = \dfrac{ds}{dt}$ ekanligini va masala shartini e`tiborga olib,

$$s'(t) = 2s(t),\ s(10) = 100$$

ko`rinishdagi Koshi masalasiga ega bo`lamiz. Bu masalani yechib, jismning yo`l formulasini topamiz: $s(t) = 100e^{2t-20}$.

4-masalaning qo'yilishi. Silindrik idishning diametri $2R = 1{,}8$ m va balandligi $H = 2{,}45$ m. Idishdagi hamma suv idish tubidagi $2r = 6$ sm diametrli teshikdan qancha vaqtda oqib chiqadi? Silindrning o`qi vertikal joylashgan.

Yechilishi. Idishdagi suyuqlikning $t > 0$ vaqt momentidagi sath balandligi $h(t)$ bo`lsin. Δt vaqt oralig'ida suyuqlik sathi $h(t + \Delta t)$ qiymatgacha pasayadi. Demak, idishdan $(h(t) - h(t + \Delta t))\pi R^2$ ga teng suyuqlik oqib chiqib ketadi. Boshqa tomondan, idishdagi teshikdan $\pi r^2 v(t_1)\Delta t$ miqdordagi suyuqlik oqib chiqadi, bu yerda $t_1 \in (t, t + \Delta t)$, $v(t_1)$ esa suyuqlikning $(t, t + \Delta t)$ intervalda oqish tezligining biror oraliq qiymati. Massaning saqlanish qonuniga asosan,

$$h(t + \Delta t) - h(t) = -\left(\frac{r}{R}\right)^2 v(t_1)\Delta t$$

bo'ladi. Bu tenglikning ikkala tomonini Δt ga bo`lib va $h(t)$ funksiyani differensiallanuvchi, $v(t)$ funksiyani esa uzluksiz deb faraz qilib, Δt ni nolga intiltiramiz. U holda

$$\frac{dh}{dt} = -k^2 v(t),\ k = \frac{r}{R},\ v = 0{,}6\sqrt{2gh}$$

differensial tenglamani olamiz. Bu tenglamaning yechimi

$$h(t) = \left(C - 0{,}3\sqrt{2g}\,k^2 t\right)^2,\ C = const$$

ko`rinishda topiladi.

Masala shartiga ko`ra, $h(0) = H$ bo`lganligi uchun $C = \sqrt{H}$ bo`ladi. Bundan

$$t = \frac{10\sqrt{H}}{3\sqrt{2g}}\frac{R^2}{r^2} \approx 1050 \text{ sekund } = 17{,}5 \text{ minutda } \ h(t) = 0$$ bo`lishi kelib chiqadi.

Xulosa

Tabiat qonunlaridan foydalangan holda qo'yilgan masala matematik modeli tuzildi. Modellashtirish natijasida hosil qilingan matematik masala differensial tenglamalar nazariyasi yordamida bir qiymatli yechildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuhtasinov M. Ergashev T.G. Differensial tengalamalar fanidan misollar va masalalar yechish. Toshkent, 2020. 292 bet.

SODDA IQTISOD-MUHANDISLIK MASALARIGA MATRITSALARNING TATBIQI

M.Yeshanova – talaba
Ilmiy rahbar: PhD-X.M.Komilova

"TIQXMMI" Milliy tadqiqotlar universiteti

Annotatsiya:

Bu maqolada biz oliy matematika fanida o'tilayotgan mavzularining xayotiy masalalarga qo'llanilishini, sodda iqtisod-muhandislik masalariga matritsalarning tatbiqi ko'rib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Matematika, matritsa, xarajat, resurs, maxsulot

Kirish: Oliy o'quv yurtlarida nazariy bilimlari puxta, ayni paytda undan amaliyotda keng foydalana oladigan mutaxassislar yetishtirish zarur. Bunday mutaxassislarni tayyorlashda oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan oliy matematikaning ahamiyati kattadir. Oliy matematikani o'rgatish talabalarni faqat qator matematik ma'lumotlarni tanishtirishdan iborat bo'lmasdan, balki mantiqiy fikrlashga, uni soha masalalariga tatbiq etishga ham qaratilgandir.

Oliy matematika fani asosida talabalarga qishloq va suv xo′jaligi hamda iqtisodiy masalalarini yechish, o'tilayotgan mavzularni amaliy masalalarga tadbiqlari qiziq va muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, matematika hech qachon yolg'iz qolmaydi, u doimo biron narsaga tatbiq etiladi! Bu shuni ko'rsatadiki, boshqa fanlarni matematikasiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun, agar insoniyat matematika dunyosini yaratmagan bo'lsa, hech qachon ILMga ega bo'lolmagan bo'lar edi! Misol tariqasida texnik taraqqiyotni olaylik. Yangi apparat paydo bo'lishi uchun ko'plab olimlar va ishlab chiquvchilar kerak. Ular orasida albatta matematik bo'ladi, chunki bunga ehtiyoj borligi shubhasiz! Demak, bizni o'rab turgan dunyo va umuman insoniyat taraqqiyotida matematikaning muhim o'rni bor.

Muammoning qo`yilishi. Matematika har doim insoniyat madaniyatining ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan, u atrofdagi dunyoni anglashning kaliti, ilmiy-texnik taraqqiyotning asosi va shaxsiyat rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir.

Matematikada irodaviy faoliyat, spekulyativ mulohaza yuritish va estetik barkamollikka intilish xususiyatlari mavjud. Uning asosiy va o'zaro qarama-qarshi elementlari mantiq va sezgi, tahlil va qurilish, umumiylik va konkretlilikdir.

Tadqiqot usullari va yechim. Matematika insoniyat uchun juda muhim va zarur fandir. Odamlar bu xulosaga uzoq vaqt davomida kelishgan, qachonki oddiy matematik hisob-kitoblar ularga tabiiy, ba'zan shafqatsiz muhitda omon qolishlariga yordam bergan bo'lsa.

Matritsalar yordamida ba'zi iqtisodiy bog'liqlarni ifodalash mumkinligini birinchi paragrafda ko'rdik. Ehdi matritsalar yordamida ba'zi amaliy masalalarni yechishni o'rganamiz.

1-masala. "Ravot" va "Qahramon" fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan poliz mahsulotlari shahardagi N_1, N_2 va N_3 supermarketlarga har kuni yetkasilib turiladi. Bu fermer xo'jaliklaridan kundalik poliz mahsulotlarining bir tonnasini N_1 - supermarketga yetkasib berish - 20 ming, N_2 - supermarketga yetkasib berish - 30 ming va N_3 - supermarketga yetkasib berish esa - 50 ming pul birligiga to'g'ri keladi. Har bir fermer xo'jaligining kundalik transport xarajatlarini hisoblang.

Fermer xo'jaliklari	Supermarketlarga kundalik yetkasilib berilgan poliz mahsulotlari (tonna hisobida)		
	N_1	N_2	N_3
"Ravot"	2	3	1
"Qahramon"	3	1	4

Yechish. A – matritsa bilan har kuni fermer xo'jaliklaridan supermarketlarga yetkasib berilgan polis mahsulotlari (tonna hisobida), B – matritsa esa fermer xo'jaligidan bir tonna mahsulotni supermarketga etkasib berish uchun sarflanadigan transport xarajatlari (narxlari) bo'lsin:

$$A = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ 3 & 1 & 4 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 20 & 30 & 50 \end{pmatrix}.$$

U holda, fermer xo'jaliklarining poliz mahsulotlarini supermarketlarga yetkasib berish uchun ketgan bir kunlik sarf xarajatlari matritsasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$C = A \cdot B^T = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ 3 & 1 & 4 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 20 \\ 30 \\ 50 \end{pmatrix} =$$

$$= \begin{pmatrix} 2 \cdot 20 + 3 \cdot 30 + 1 \cdot 50 \\ 3 \cdot 20 + 1 \cdot 30 + 4 \cdot 50 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 180 \\ 290 \end{pmatrix}$$

Demak, "Ravot" fermer xo'jaligidan polis mahsulotlarini supermarketlarga yetkasib berish uchun kuniga 180 ming, "Qahramon" fermer xo'jaligidan esa 290 ming shartli pul birligi sarflanadi.

2-masala. Fermer xo'jaligida 10 tonna kartoshka, 3 tonna piyoz va 6 tonna pomidor yetishtirish rejalashtirilgan. $X = \begin{pmatrix} 10 & 3 & 6 \end{pmatrix}$ – fermer xo'jaligining rejasi; $S = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 3 \end{pmatrix}$ - resurslar narxi (har bir tonna uchun); $P = \begin{pmatrix} 0 & 3 & 7 \end{pmatrix}$ – transport xarajati (har bir tonna uchun).

1) Fermer xo'jaligi bo'yicha rejadagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun sarflangan har bir resurslarning miqdorini aniqlang?

2) Mahsulotlar turlari bo'yicha bir tonna qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish uchun sarflangan resurs xarajatlarini aniqlang?

3) Rejani bajarish uchun sarflangan jami resurs xarajatlari miqdorini aniqlang?

4) Fermer xo'jaligi bo'yicha resurs va transport xarajatlari umumiy yig'indisini toping?

Yechish. 1) 1 tonna mahsulotni yetishtirish uchun sarflanadigan resurslar miqdorini

$A = \begin{pmatrix} 2 & 2 & 1 \\ 3 & 1 & 3 \\ 4 & 3 & 2 \end{pmatrix}$- matritsa bilan ifodalaylik. Bu yerda a_{ij}- i-turdagi qishloq xo'jalik mahsulotining bir tonnasini yetishtirish uchun sarflangan j-turdagi T_j resurs miqdori.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari	1 tonna mahsulotni yetishtirish uchun sarflanadigan resurslar miqdori		
	T_1	T_2	T_3

	suv (ming, litr)	mahaliy o‘g‘itlar (tonna)	mineral o‘g‘itlar (tonna)
Kartoshka	2	2	1
Piyoz	3	1	3
Pomidor	4	3	2

$$T = X \cdot A = (10 \quad 3 \quad 6) \cdot \begin{pmatrix} 2 & 2 & 1 \\ 3 & 1 & 3 \\ 4 & 3 & 2 \end{pmatrix} =$$

$$= (10 \cdot 2 + 3 \cdot 3 + 6 \cdot 4 \qquad 10 \cdot 2 + 3 \cdot 1 + 6 \cdot 3$$

$$10 \cdot 1 + 3 \cdot 3 + 6 \cdot 2) = (53 \quad 41 \quad 31)$$

Demak, fermer xo‘jaligi rejadagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishga sarflagah resurslar miqdori quyidagicha: T_1– 53 ming litr; T_2 – 41 tonna; T_3 – 31 tonna.

2) Bir tonna qishloq xo‘jalik mahsulotini yetishtirish maqsadida foydalanilgan resurslar uchun ketgan sarf-xarajatlarni hisoblaymiz:

$$A \cdot S^T = \begin{pmatrix} 2 & 2 & 1 \\ 3 & 1 & 3 \\ 4 & 3 & 2 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 1 \\ 1 \\ 3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 \cdot 1 + 2 \cdot 1 + 1 \cdot 3 \\ 3 \cdot 1 + 1 \cdot 1 + 3 \cdot 3 \\ 4 \cdot 1 + 3 \cdot 1 + 2 \cdot 3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 7 \\ 13 \\ 13 \end{pmatrix}.$$

Demak, bir tonna qishloq xo‘jalik mahsulotini yetishtirish uchun 1-turdagi mahsulotga - 7 ming, ikkinchi va uchunchi turdagi mahsulotlar uchun -13 ming so‘m sarflanadi.

3) Fermer xo‘jaligining uch turdagi mahsulotlarni yetishtirish uchun resurslarga sarflagan harajatini aniqlaymiz:

$$X \cdot (A \cdot S^T) = (10 \quad 3 \quad 6) \cdot \begin{pmatrix} 7 \\ 13 \\ 13 \end{pmatrix} =$$

$$=(10 \cdot 7 + 3 \cdot 13 + 6 \cdot 13) = 187.$$

Demak, fermer xo‘jaligining rejadagi kartoshka, piyoz va pomidorni yetishtirish uchun resurslarga sarflagan xarajatlari summasi – 187 ming so‘mni tashkil qiladi.

4) Resurslarni tashish uchun ketgan transport xarajatini hisoblaymiz:

$$T \cdot P = (53 \quad 41 \quad 31) \cdot \begin{pmatrix} 0 \\ 3 \\ 7 \end{pmatrix} = 0 + 123 + 217 = 340.$$

Demak, fermer xo‘jaligining resurslar va transport xarajatlari umumiy yig‘indisini quyidagiga teng:

$$X \cdot (A \cdot S^T) + T \cdot P = 187 + 340 = 527.$$

Хулоса:

